

## MARGARID MID HAYOTIDA GENDER TENGSIZLIGI

*Iskandarova Nigora*

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti*

*antropologiya va etnologiya yo'nalishi 2-bosqich talabasi*

*Ilmiy rahbar: Abirov Valisher*

**Annotatsiya:** Bu maqolada XX asr boshlaridagi gender tengsizlik muammolari tufayli olim ayollarning o'z tadqiqotlari va ilmiy faoliyatlari davomida uchragan to'siqlari haqida gap ketadi. Ular aynan ayol bo'lganliklari uchun jamiyat tomonidan chetga surib qo'yilganlar. O'z kashfiyotlarini ham erkaklar soyasi ostida ommaga taqdim etishga majbur bo'lishgan. Bu kabi mashhur olim ayollardan biri antropolog va etnolog tadqiqotchi Margarid Middir. Margarid Mid ham faoliyati davomida ko'plab qiyinchiliklarga uchraydi, erkak hamkasblari tomonidan tan olinmaydi. Aynan bu sababli u ham o'z asarlarida gender muammolar haqida juda ham ko'p yozadi.

**Kalit so'zlar:** Antropologiya, gender tenglik, etnosintrezm, repressiv

Bugungi kunimizda ilm-fanning bu darajada taraqqiy etishi nafaqat XXI asr balki XX asr va undan oldingi davr ilm-fan ulamolari va olimlari, tadqiqotchilarining sa'y-harakatlarining yorqin natijasidir. Biz bunday yutuqlar haqida fikr yuritganimizda negadir avvalo ko'proq erkak tadqiqotchi va olimlarni yodga olamiz. Vaholangki bugungi kungacha bo'lgan ilm-fan yutuqlarida nafaqat erkaklar balki, ayol olimalarning ham o'rni beqiyosdir. Ular tabobatdan tortib to matematika, astronomiya, kimyo, fizika, antropologiya sohalarida ham faoliyat yuritib kelganlar. Ammo uzoq davrlar mobaynida gender tenglik masalalari tufayli ular ko'plab to'siq va qiyinchiliklarga duch kelishgan. Olim ayollar ko'pincha kamsitish va noto'g'ri qarashlarga duch kelishdi. Ular ta'lim olish, tadqiqot imkoniyatlari va tan olinishdan mahrum qilindi. Ular ayollarning ilmiy yutuqlarga qodir emasligi haqidagi qarashlarga qarshi kurashishlari kerak edi. Ko'pgina ayollar o'zlarining erkak hamkasblari soyasida ishlashga yoki o'zlarining kashfiyotlarini erkaklarga bog'lashga majbur bo'lishdi. Yigirmanchi asrning ikkinchi yarmida ilm-fanda ayollarni kamsitishga qarshi kurashda sezilarli yutuqlarga erishildi. Har qachongidan ham ko'proq xotin-qizlar ilmiy darajalarni qo'lga kiritib, ilmiy muassasalarda rahbarlik lavozimlarida ishlay boshladilar. Lekin bungacha bo'lgan juda qiyin tarixiy davr mobaynida o'z ilmiy izlanishlari orqali bu kabi to'siqlarni yengib o'ta olgan ayollar yo'q edi deyishimiz xato bo'ladi. Olim va tadqiqotchi ayollar XX asrda ko'plab to'siqlar va kamsitishlarga duch kelganiga qaramay, ilm-fanga katta hissa qo'shdilar. Bulardan eng yorqin va ko'zga ko'rinarlilari Margarid Mid, Mari Kyuri, Rozaland Franklin, Barbara Makiltonlardir. Ayniqsa ular orasida XX asr ilm fanida yuksak burilishlar va ilmiy-amaliy tadqiqotlari bilan po'rtanadek otilib chiqan olim Margrid Middir.

Margarid Mid amerikalik antropolog bo'lib, madaniyat va inson taraqqiyoti sohasidagi tadqiqotlari bilan tanilgan. Midning tadqiqotlari antropologiyaga, ayniqsa madaniyat va inson taraqqiyotini o'rganishga katta ta'sir ko'rsatdi. Uning ishi gender rollari va ota-onalar haqidagi qarashlarni buzishga yordam berdi. Uning g'oyalari antropologlar va boshqa ijtimoiy olimlarni ilhomlantirishda hozirgi kunga qadar davom etmoqda. U Filadelfiya, Pensilvaniya shahrida 1901-yilning 16-dekabrida tug'ilgan. Margarid Mid Pensilvaniya universitetining Uorton maktabining iqtisod professori Edvard Shervud Mid va sobiq maktab o'qituvchisi va

sotsiologiya aspiranti Emili Foggning besh farzandidan birinchisi edi. Mid va uning aka-ukalari asosan oilasi bilan birga yashagan buvisi tomonidan uyda ta'lim olishgan. Mid oilasi otalarning ilmiy faolyatlari tufayli tez-tez ko'chib o'tishar edi. Margarid Mid bolalik davrlaridanoq o'qishga-o'rganishga bo'lgan ishtiyoqi baland edi. U o'zining ilmi va tirishqoqligi bilan tengdosh dugonalaridan ajralib turardi. Balki bunga sabab ota-onasing ilm-fan insonlari bo'lganligidadir. Lekin aynan o'sha davrlarda ham qizlar va ayollarning ta'lim olishida va ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishlarida ko'plab taqiq va qiyinchiliklar g'arb jamiyatida ham anchagina kuchli edi. Shunga qaramay Midning ota-onasi bolalarining ta'lim olishlari uchun yaxshi sharoit yaratib bera olishdi. Ular farzandlariga nafaqat yaxshi sarmoya va e'tibor ham qaratdilar. Vaholangki ularning o'sha davrdagi moliyaviy ahvolidagi muammolari yetarlicha edi. Uning otasi iqtisod professori bo'lishiga qaramay uning maoshi o'sha davr uchun juda kamlik qilar edi. Margarid Mid o'zining "Qora bo'ronlar" nomli avtobiografiyasida Mid ijara uchun pul yo'qligi sababli oilaning tez-tez ko'chib o'tishini tasvirlaydi. Shuningdek, u qanday qilib ikkinchi qo'l kiyim kiyishga majbur bo'lgani va pul yo'qligi sababli tadbirlarda qatnashishdan bosh tortgani haqida yozadi. Margarid Mid manashunday sharoitda ulg'aydi. Moliyaviy qiyinchiliklarga qaramay, Mid yaxshi ta'lim oldi. XX asr boshlarida ayollar uchun nufuzli universitetlarga kirish va o'qish qiyinroq edi. U 1923-yilda Barnard kollejida, keyin esa 1924-yilda Kolumbiya universitetida o'qidi va u yerda 1926-yilda antropologiya bo'yicha doktorlik darajasini oldi. Uning keyingi faolyati ham ilm-fan bilan chambarchas bog'liq kechdi. Lekin uning bundan keyingi faolyati va tadqiqotlari mobaynida ko'plab qiyinchiliklar kutib turar edi. O'sha davr Amerika jamiyatida ko'plab sohalarda kata va kichik yutuqlar ko'p bo'lishiga qaramay, eskicha dunyoqarash va fikrlash yo'q emas edi. Gender tenglik masalasidagi qarashlar juda ham sust va sayoz bo'lib, buning natijasida ko'plab ayol tadqiqotchi va olimalar o'z faolyatlarida juda ham ko'p nohaq taqiqlarga duchor bo'lishardi. Ayniqsa bu kabi adolatsizliklar nafat jamiyat tomonidan balki o'zlarining erkak hamkasblari tomonidan amalga oshirilardi. Ular bu kabi ilm-fan yo'lidan ketgan ayollarni kamsitishga va chetlatishga harakat qilishar edi. Balki shuning uchun ham ayollar o'z kashfiyotlarini va erishgan yutuqlarini albatta erkak hamkasblarining nomi bilan bog'lashga majbur edilar. Bu kabi jamiyat muammolaridan Margarid Mid ham chetda qolgani yo'q. Barchamizga ma'lumki u doktorlik desertatsiyasini yoqlash maqsadida o'z tadqiqot obyekti sifatida Tinch okeanida joylashgan Samoa orolidagi qabilalarni tanladi. Lekin tabiyki bu kabi amaliy dala tadqiqotini o'tkazish yaxshigina mablag' talab qilar edi. Olima ayollar o'z tadqiqotlari uchun mablag' olishda ko'pincha qiyinchilikka duch kelishgan. Mid bu muammoga o'z faoliyatining boshida Samoada ishi uchun grant olishga qiynalayotgan paytda duch kelgan. Mid ko'pincha uning ishini obro'sizlantirgan va olim sifatidagi qobiliyatiga shubha qiladigan erkak hamkasblarining ishonchsizligi va masxaralarining qurboniga aylangan. U qiyinchiliklar bilan davlatdan mablag' ajratishlariga erishadi. 1925-1926-yillarda olib borgan bu tadqiqoti natijasida Kolumbiya universitetida doktorlik darajasini oladi. Uning dissertatsiyasi "Samoadagi o'sish: Tinch okeanining janubiy qismidagi ibtidoiy jamiyatning psixologik antropologik tadqiqoti" deb nomlangan. 1929-yilda Kolumbiya universitetida doktorlik darajasini olgandan so'ng, Mead Nyu-York universitetida o'qituvchilik lavozimiga ariza berdi. Ajoyib ilmiy yutuqlariga qaramay, fakultet a'zolari ayol ekanligini aytib, uning tayinlanishiga qarshi ovoz berishdi. Ishga olishdan bosh tortish Midni qattiq xafa qildi, lekin bu uning gender tengligi uchun kurashish qarorini kuchaytirdi. U ilm-fanda ayol sifatida duch kelgan to'siqlarga qaramay, kashshof tadqiqotlar olib borishda va antropologiyaga katta hissa qo'shishda davom etdi.

Margarid Mid 1923-yilda antropolog hamkasbi Leo Formaneder bilan turmush quradi. Lekin 1928-yilda ular ajrashadilar. 1928 yilda Mid Teodor ismli o'g'il tug'di ("Jo" nomi bilan mashhur). U ajrashgan va turmushga chiqmagan ona edi, bu qaror uning ba'zi hamkasblari va jamoatchilik tomonidan tanqid qilindi. O'sha paytda turmushga chiqmagan ayolning farzand

ko‘rishi qabul qilinishi mumkin emas edi va Mid kamsitish va cheklovlarga duch keldi. Erining yo‘qligi, shuningdek, Mid o‘zi va o‘g‘li uchun to‘liq moliyaviy javobgarlik bilan yolg‘iz qolganini anglatardi. U dars berishda va tadqiqot olib borishda davom etdi, lekin uning maoshi juda ham kam bo‘lib, u tez-tez kun kechirish uchun qiynalardi. O‘zining “Qora bo‘ronlar” nomli avtobiografiyasida Mid o‘zi duch kelgan moliyaviy qiyinchiliklarni shunday tasvirlab berdi: “Men qaramog‘im kerak bo‘lgan bolali yolg‘iz ona edim va menda juda kam pul bor edi. Men resurslarimni juda ehtiyotkorlik bilan boshqarishim kerak edi” deb aytadi.

Mid kun kechirish uchun o‘qituvchi bo‘lib ishlagan, jurnallarga maqolalar yozgan va hatto qonini sotgan. Shuningdek, u oilasi va do‘stlarining moliyaviy yordamiga ham tayandi. Moliyaviy qiyinchiliklarga qaramay, Mid o‘z ishiga va o‘g‘liga sodiq qoldi. U kashshof tadqiqotlarni davom ettirdi va antropologiyaga katta hissa qo‘shdi. Shuningdek, u gender tengligi va ayollar huquqlarining faol tarafdori edi. Mid antropolog va yozuvchi sifatidagi muvaffaqiyatli karerasi orqali moliyaviy barqarorlikka erishdi. Biroq, uning dastlabki moliyaviy qiyinchiliklari XX-asrning boshlarida ayollar, ayniqsa turmushga chiqmagan onalar duch kelgan to‘siqlarni eslatib turadi.

Bu kabi to‘siqlarga qaramay Midga yordam beradigan olimlar, hamkasblari yo‘q emas edi. Shu o‘rinda Margarid Mid “Amirika antropologiyasining otasi” deb ulug‘lanadigan mashhur olim Frans Boasning e‘tibori va etirofiga sazovor bo‘ladi. Shuningdek Boas Kolumbiya univrsitetida antropologiya professori sifatida faoliyat yuritgan bo‘lib Margarid Midning ustozidir. Bundan tashqari uni Edvard Sapir, Rut Benedikt, Jessi L.Kipa, Raglan Glass kabi Kolumbiya universitidagi professor ustozlari va hamkasblari qo‘llab quvvatlashadi va yordam berishadi. Mid o‘z faoliyati davomida jamoatchilikni targ‘ib qilishga bag‘ishlangan.

U “Redbook” ayollar jurnali uchun oylik maqolalar, shuningdek, “Parents” va “The Nation” kabi boshqa mashhur nashrlar uchun maqolalar yozgan. Mid, shuningdek, bir qator ommaviy ma‘ruzalar o‘qidi va televideniya chiqish qildi, bu uning aholi orasida obro‘ sini oshirdi. Uning ko‘pgina ma‘ruzalari va yozuvlari bolaning rivojlanishi, uning sohadagi tadqiqotlarining asosiy mavzularidan biri va madaniy farqlar bilan bog‘liq. U shuningdek, Amerika siyosati va jamiyati haqida fikr bildirish uchun antropologik kuzatish qobiliyatidan foydalangan.

U o‘z turmush hayoti va moliyaviy ahvolini yo‘lga qo‘ya oldi. Shuningdek ilmiy faolyatidagi izlanishlari va tirishqoqligi natijasida ko‘plab yutuqlarga erishdi. U shon shuhrat qozonganidan keyin ham boshidan o‘tgan qiyinchiliklarni unutmadi. Margarid Mid o‘z tadqiqotalari, asarlari va maqolalarida ham gender tenglik masalasiga alohida e‘tibor qaratdi va buni keng ommaga taqdim qila oldi. Albatta uning bu kabi izlanishlari tanqidga uchramay qolmadi.

Mid etnosentrizmda<sup>1</sup> ayblangan, chunki u ko‘pincha Ga‘rb madaniyatini boshqa madaniyatlar bilan taqqoslagan va G‘arb qadriyatlarining ustunligini nazarda tutgan. Masalan, u o‘zining “Samoada o‘sish” kitobida Samoa jamiyatini repressiv<sup>2</sup> deb hisoblagan G‘arb jamiyatidan farqli o‘laroq, utopik sifatida tasvirlagan. Ba‘zi tanqidchilar Mid o‘zining gender rollari va balog‘at yoshi haqidagi xulosalarini faqat bir nechta madaniyatlarni o‘rganish natijasida umumlashtirgan degan hulosani berishgan. Uning gender rollari tug‘ma emas, balki

<sup>1</sup> Etnosentrizm yunonchadan olingan bo‘ etnos – guruh, qabila, xalq va lotincha sentrum – markaz, jamlanish m‘anolarini anglatadi. Etnik ongning voqelikdagi hodisalarni o‘z etnik guruhi an‘ana va qadriyatlari nuqtai nazaridan baholanishini anglatadi.

<sup>2</sup> Repressiya, jazo va qata-g‘onlardan iborat bo‘lgan, shunga asoslan-gan.

madaniy omillar ta'sirida shakllantirilishi haqidagi fikri ba'zi olimlar tomonidan shubha ostiga olingan.

Ushbu tanqidlarga qaramay, Margared Midning ishi antropologiya, gender tadqiqotlari va madaniy xilma-xillikni tushunishimizga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Uning ushbu sohalarga qo'shgan hissasi olimlarni, siyosatchilarni va keng jamoatchilikni ilhomlantirish va xabardor qilishda davom etmoqda. Uning antropologiya sohasiga qo'shgan hissasi beqiyos baholanadi.

Margarid Mid hayoti va faoliyati davomida ko'plab tadqiqotlarni amalga oshirdi. Ulardan eng mashhurlari: 1925 va 1926-yillarda Samoada dala ishi. Bu uning 1928-yildagi "Samoadada o'sish" nomli kitobiga asos bo'ldi. 1930-yilda Yangi Gvineyada gender rollari va o'sish bo'yicha tadqiqotlar, 1950-yilda Bali va Irlandiyada bolalar rivojlanishiga madaniy tasirlarni o'rganish kabi tadqiqotlaridir. Margarid Mid bu tadqiqotlari soyasida ko'plab asarlar yozdi. 1928-yilda "Samoadada o'sish", 1935-yilda "Jinsiy aloqa va temperament", 1949-yilda "Erkaklar va ayollar: inson turlari", 1961-yilda "Madaniyat va shaxsiyatni rivojlantirish" va nihoyat 1968-yildagi "Kelajakdagi Amerika kimga tegishli?" kabi asarlari shular jumlasidandir.

Margarid Midning ilm-fanga qo'shgan hissasi, antropologiya sohasidagi yutuqlari albatta e'tirofsiz qolib ketgani yo'q. Yuqorida takidlaganimizdek XX asrning 2-yarimida g'arb jamiyatida gender tenglik masalasida ko'plab yutuqlarga erishildi. Barcha sohalarda ayollarning o'rni va qadri oshib bordi. Ko'plab davlat idoralarida ayol rahbarlar soni ortib bordi. Manashunday imkoniyatlar davrida nafaqat ilm-fan va boshqa ko'plab sohalarda faoliyat olib borayotgan Margarid Mid kabi ayollar ko'plab mukofotlar bilan taqdirlanishdi. Margarid Mid 1965-yilda Amerika antropologiya assotsiatsiyasining madaniy antropologiya medali, 1970-yilda Amerika jismoniy antropologlar assotsiatsiyasining Frants Boas medali, 1979-yilda Prezidentning "Ozodlik" medali va shu yilning o'zida Milliy fan medali kabi mukofotlar bilan taqdirlandi.

Xulosa qilib aytganda Margarid Midning antropologiya sohasidagi tadqiqotlari va faoliyati nafaqat o'sha davr balki bugungi kun ilm-fani taraqqiyotida ham juda muhimdir. O'sha davrdagi tazyiq va qiyinchiliklarga qaramasdan u o'z ismini tarixga muhurlay olgan XX-asr olimi ayolining yorqin namunasidir. Bugungi kunda ham antropologiya sohasida u yozgan kitoblari va ilmiy nazariyalaridan foydalaniladi.

## Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. <https://www.quora.com/If-I-want-to-learn-about-Margaret-Mead-what-books-should-I-read>
2. <https://www.berghahnbooks.com/title/ShankmanMargaret>
3. <https://www.britannica.com/biography/Margaret-Mead>
4. JURNAL MAQOLASI: Margaret Mead: minnatdorchilik, Vera Rubin, Inson tashkiloti: jild. 38, (1979 yil yozi), 193-196-betlar (4bet) Nashr qilgan: Taylor & Frensis.